

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**RASULEV AKBAR ALISHEROVICH**

**GIYOHVANDLIK VOSITALARI YOKI PSIXOTROP MODDALARNI  
G‘AYRIQONUNIY RAVISHDA O‘TKAZISH VA O‘TKAZISH  
MAQSADIDA SODIR ETILGAN BOSHQA HARAKATLARNING  
JINOYAT-HUQUQIY JIHATLARI**

**12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi**

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI

Toshkent - 2025

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Table of Contents of the PhD Dissertation Abstract**

**Rasulev Akbar Alisherovich**

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda o‘tkazish va o‘tkazish maqsadida sodir etilgan boshqa harakatlarning jinoyat-huquqiy jihatlari..... 5

**Расулев Акбар Алишерович**

Уголовно-правовые аспекты незаконного сбыта и иных действий с наркотическими средствами или психотропными веществами в целях сбыта ..... 27

**Akbar A. Rasulev**

Criminal Law Aspects of Illegal Distribution and Other Acts Involving Narcotic Drugs or Psychotropic Substances for the Purpose of Distribution..... 51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of Published Works..... 56

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**RASULEV AKBAR ALISHEROVICH**

**GIYOHVANDLIK VOSITALARI YOKI PSIXOTROP MODDALARNI  
G‘AYRIQONUNIY RAVISHDA O‘TKAZISH VA O‘TKAZISH  
MAQSADIDA SODIR ETILGAN BOSHQA HARAKATLARNING  
JINOYAT-HUQUQIY JIHATLARI**

**12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi**

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2017.3.PhD/Yu88 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

**Doktorlik** dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<http://akadmvd.uz/uz/nauka/deyatelnost-nauchnogo-soveta>) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Payziyev Dilshat Yuldashbayevich,**  
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Otajonov Abrorjon Anvarovich**  
yuridik fanlar doktori, professor;

**Rasulev Abdulaziz Karimovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil 5 sentyabr soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel./faks: +99871 265-22-52; e-mail: [info@akad.mvd.uz](mailto:info@akad.mvd.uz)).

Dissertatsiya bilan Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1598 - raqami bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel.: +99871-265-22-52.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025 yil 22 avgustdagi 23 raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.S. Tursunov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
yuridik fanlar doktori, professor

**A.D. Xusanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**Sh.A. Qulmatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

## KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda giyohvandlik ko‘lamining kengayishi va uning tarqalishiga qarshi kurashish, shuningdek, insonlarning jismoniy, axloqiy va ma'naviy salomatligini ta'minlash masalalari dolzarb muammolardan hisoblanadi. BMTning 2024 yilgi Narkotik moddalar bo'yicha umumjahon hisobotida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yilda dunyoda 15 yoshdan 64 yoshgacha bo'lgan har 18 kishidan biri so'nggi 12 oy ichida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilgan<sup>1</sup>. Hisobotlarda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning savdosidan olinadigan katta daromadlar, qashshoqlik va ishsizlik kabi ijtimoiy va iqtisodiy muammolar, ayrim mamlakatlarda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalariga bo'lgan talabning ortib borishi, ayrim giyohvandlik vositalarining legallashtirilishi ushbu vosita va moddalar keng tarqalishining asosiy sabablari sifatida ko'rsatilmoqda. Markaziy Osiyo mintaqaviy axborotlarni muvofiqlashtiruvchi markaz (SARIKTS)ning ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarning soni Qozog'istonda 13,8 foizga, Rossiyada 7,5 foizga, Qirg'izistonda 2,8 foizga va Tojikistonda 1,6 foizga ko'paygan<sup>2</sup>. Bu holatlar giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalari, yoki ularning analoglarini qonunga xilof ravishda o'tkazishga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralari takomillashtirish zarurati mavjudligidan dalolat beradi.

Jahonda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, ularning analoglarining tarqalishiga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy jihatlarini tadqiq qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning analoglarini tarqatish uchun javobgarlik choralari kuchaytirish hamda ularning oldini olishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy choralarni takomillashtirish borasida ma'lum natijalarga erishilgan. Shunga qaramasdan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda o'tkazishga qarshi kurashish usullari, ularning ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilishning ayrim jihatlarini chuqurroq o'rganishni talab etadi. Jumladan, giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni yoki ularning analoglarini o'tkazishning yangi shakllarini hisobga olgan holda ularning tarqalishiga qarshi kurashishga qaratilgan qonunchilikni unifikatsiya qilish va xalqaro standartlarni joriy etishning ilmiy yo'llarini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashish, ushbu jinoyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 6

---

<sup>1</sup> Онлайн-отчет о мировых наркотиках 2024 г. Модели и тенденции рынка наркотиков [Elektron manba]. Kirish yo'li: <https://www.unodc.org/unodc/en/data-and-analysis/wdr2024-drug-market-trends.html> (Murojaat qilingan sana: 12.11.2024).

<sup>2</sup> Обзорные материалы по наркоситуации в государствах-участниках ЦАРИКЦ. [Elektron manba]. Kirish yo'li: <https://seizures.caricc.org/index.php/ru/> (Murojaat qilingan sana: 12.02.2025).

maydagi PF-73-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024-2028 yillarga mo‘ljallangan milliy strategiyasi”<sup>1</sup>da narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar, xulosalar, yutuqlar va yangiliklarni amaliyotga joriy etish, shuningdek, ushbu sohada qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etish vazifalari belgilangan. Bu esa amaldagi jinoyat qonunchiligida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalari yoki ularning analoglarini qonunga xilof ravishda o‘tkazish va o‘tkazish maqsadida sodir etiladigan boshqa harakatlarga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy jihatlarining ilmiy-nazariy asoslarini yanada takomillashtirish va uni qo‘llash amaliyotining samaradorligini oshirish zarurligini taqozo etadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining 1999 yil 19 avgustdagi 813-1-son “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 6 maydagi PF-73-son “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta‘sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi PQ-3723-son “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 12 noyabrdagi 330-son “Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, undan olib chiqish va tranzit tarzida o‘tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo‘lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori hamda mavzuga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Yuridik adabiyotlarda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasining jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari muayyan tarzda tadqiq etilgan. Ushbu masalalar Q.R. Abdurasulova, O.G. Zokirova, M. Ikramova, I.Ismailov, R. Kabulov, F.E.Muxamedov, D.K. Musayev, G.M. Musaxanova, A.A. Otajonov, M.B. Palvanov, M.X. Rustambayev, I. Safarov, X.D. Tadjibayev, B.A. Umarova, M.K. Uteniyazov,

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta‘sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni. [Elektron manba]. Kirish yo‘li: <https://www.lex.uz/docs/6912475> (Murojaat qilingan sana: 12.02.2025).

A.S. Yakubov, M.M. Qodirov va mamlakatimizning boshqa olimlari tomonidan tadqiq qilingan.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurashning turli jihatlarini qator olimlarning dissertatsiya tadqiqotlari predmeti bo'lgan. Masalan, M.M. Qodirov giyohvandlik vositalari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy muammolari<sup>1</sup>ni, M.K. Uteniyazov voyaga yetmaganlar orasida giyohvandlikni oldini olish masalalari<sup>2</sup>ni o'rganganlar, I. Safarov giyohvandlik vositalarini saqlash va o'tkazishga qarshi kurash masalalari<sup>3</sup>ni tadqiq qilgan, F.E.Muxamedov giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurashda O'zbekiston Respublikasining xalqaro hamkorlikdagi ishtiroki<sup>4</sup>ni o'rgangan, B.A. Umarova giyohvandlik vositalarini o'tkazish maqsadida sodir etilgan jinoyatlarning jazoni og'irlashtiruvchi belgilari<sup>5</sup>ni tahlil qilgan, M.B. Palvanov giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish masalalari<sup>6</sup>ni o'rgangan. Ushbu tadqiqotlarning aksariyati O'zbekiston Respublikasining 1994 yilgi Jinoyat kodeksi (Bundan keyin matnda JK deb yuritiladi) qabul qilingunga qadar amalga oshirilgan, ayrimlarida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda o'tkazish yoki o'tkazish maqsadida boshqa harakatlar sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik bilan bog'liq bo'lmagan masalalar ko'rib chiqilgan.

MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) olimlari qatorida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning qonunga xilof ravishda muomala qilish muammolarini o'rganishga E.G. Gasanov, V.A. Yemelyanov, B. J. Jeyenmyrzayeva, A.V. Litvinov, M.A. Lyubavina, N.A. Miroshnichenko, B.S. Turlubekov, A.Yu. Tuchkov, Ye.L. Xarkovskiy, K.A. Shmatov, A.D. Shyrbakov<sup>7</sup>, va boshqalar muayyan hissa qo'shganlar.

Mamlakatimizda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g'ayriqonuniy ravishda o'tkazish va o'tkazish maqsadida sodir etilgan boshqa harakatlarning jinoyat-huquqiy jihatlarini bo'yicha kompleks tadqiqot o'tkazilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishning 2021-2026 yillarga mo'ljallangan istiqbolli dasturidagi

---

<sup>1</sup> Кадыров М.М.. Проблемы уголовно-правовой борьбы с незаконным оборотом наркотических средств. Автореф. дисс...доктора юрид.наук –Т.,1994. –45с.

<sup>2</sup> Uteniyazov M.K. Voyaga yetmaganlar giyohvandligining oldini olish muammolari. Yurid. fan. nom ... dis. avtoref.-Toshkent, 2004. 22 b.

<sup>3</sup> Сафаров И. Борьба с хранением и сбытом наркотических средств (уголовно-правовой и криминологический аспект). Автореф. дис. ... канд. юрид. наук.- Ташкент, 1990.- 26 с.

<sup>4</sup> Мухамедов Ф.Э. Участие Республики Узбекистан в международном сотрудничестве в борьбе с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ. Автореф. дис. ... канд. юрид. наук.- Ташкент, 2010.- 25 с.

<sup>5</sup> Umarova B.A. Giyohvandlik vositalarini o'tkazish maqsadida sodir etilgan jinoyatlarning jazoni og'irlashtiruvchi belgilari. Yurid.fan.nom.ilm.dar.olish uchun yozil.diss.-Toshkent, 2010. 152 b.

<sup>6</sup> Палванов М.Б. Квалифицирующие признаки незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ. Дисс.на соис.науч.степ.канд.юрид.наук. Ташкент, 2012. 156 с.

<sup>7</sup> Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

«O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi normalarini takomillashtirishning dolzarb masalalari» mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o‘tkazish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyat qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda o‘tkazish yoki o‘tkazish maqsadida sodir etilgan boshqa harakatlarga qarshi kurashning xalqaro huquqiy asoslarining rivojlanishini tahlil qilish;

giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda o‘tkazish yoki o‘tkazish maqsadida sodir etilgan boshqa harakatlar uchun javobgarlik belgilangan milliy jinoyat qonunchiligi normalarining shakllanishi va rivojlanishini tahlil qilish;

giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda o‘tkazish yoki o‘tkazish maqsadida sodir etilgan boshqa harakatlarning obyektiv belgilarini ilmiy-nazariy tahlil qilish;

giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda o‘tkazish yoki o‘tkazish maqsadida sodir etilgan boshqa harakatlarning subyektiv belgilarini ilmiy-nazariy tahlil qilish;

giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda o‘tkazish yoki o‘tkazish maqsadida sodir etilgan boshqa harakatlarni kvalifikatsiya qilish masalalarini tahlil qilish;

giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda o‘tkazish yoki o‘tkazish maqsadida sodir etilgan boshqa harakatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi qonun normalarini takomillashtirish yuzasidan asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyektini** giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o‘tkazish bilan bog‘liq jinoyat-huquqiy munosabatlar tizimi tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o‘tkazishga qarshi kurashish sohasini tartibga soluvchi milliy va xalqaro hujjatlar, ularni qo‘llash amaliyoti, shuningdek, jinoyat-huquqiy fanda mavjud bo‘lgan konseptual yondoshuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalardan iboratdir.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tarixiy, mantiqiy, analiz va sintez, deduksiya va induksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil, sotsiologik so‘rovlar, empirik va statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda tashish deganda, ularni bir joydan boshqa joyga, shu jumladan bir aholi punkti doirasida, har qanday transport turidan yoki tashish vositasi sifatida qo'llanilgan qandaydir ob'yektdan foydalangan holda ko'chirish, shuningdek, bunday faoliyat turi bilan shug'ullanishga litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslarning vakolatli shaxslari tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibini buzgan holda ushbu vositalar va moddalarni tashish tushunilishi lozimligi asoslangan;

giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni keyinchalik o'tkazish (sotish) maqsadida qonunga hilof ravishda egallash, giyohvandlik vositalarni, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni qonunga hilof ravishda egallash va ularni qonunga hilof ravishda o'tkazishga suiqasd qilish yoki tayyorgarlik ko'rish sifatida jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilish lozimligi asoslangan;

giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda o'tkazish deganda, ularni har qanday usulda haq evaziga yoki tekinga (sotish, hadya etish, almashtirish, qarz to'lash, qarz sifatida berish va h.k.) boshqa shaxsga berish tushunilishi lozimligi, shuningdek, ushbu vositalar, moddalar, o'simliklarni shaxs tomonidan bevosita yoki boshqa usullarda (masalan, ular saqlanadigan joy haqida xabar berish, shartlashilgan joyga qo'yib ketish) amalga oshirilishi mumkinligi asoslangan;

shaxsning g'araz maqsadda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar niqobi ostida qandaydir boshqa vosita yoki moddalarni o'tkazishda ifodalangan harakatlari firibgarlik sifatida, oluvchining harakatlari esa, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda olishga suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozimligi asoslangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

qonunchilikda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab oz miqdorda qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish, shuningdek ularni oz miqdorda qonunga xilof ravishda o'tkazish uchun javobgarlik masalasi tartibga solinmaganligi bois yuzaga kelgan huquqiy bo'shliqni bartaraf etish maqsadida JKning 273-moddasi 1-qismi dispozitsiyasida "ko'p bo'lmagan miqdorda" degan so'zlarni chiqarib tashlash zarurligi asoslangan;

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalari yoki ularning analoglarini qonunga xilof ravishda "qayta ishlash" uchun javobgarlik JK 273-moddasining asosiy tarkibida belgilash lozimligi asoslangan, shuningdek, ushbu atamani giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni "tayyorlash" atamasidan farqlash va ularni qo'llash bo'yicha yagona amaliyotni ta'minlash maqsadida "qayta ishlashning" mualliflik tushunchasi ishlab chiqildi;

JKning 270-moddasi ikkinchi qismi «a» bandi, 271-moddasi ikkinchi qismi «a» bandi, 273-moddasi uchinchi qismi «a» bandi, 274-moddasi to'rtinchi qismi «a» bandi hamda 276-moddasi ikkinchi qismi «b» bandlarini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiqligi asoslangan: «takroran, xavfli retsidivist yoki ilgari

giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish bilan bog‘liq jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan»;

JKning 273-moddasi 4-qismida nazarda tutilgan giyohvandlik vositalari, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilish yoki tarqatish uchun bangixonalar tashkil qilish yoki saqlash uchun javobgarlikni alohida moddada javobgarlikni og‘irlashtiruvchi belgilarni ko‘rsatgan xolda nazarda tutish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

JKning 273-moddasi 5-qismida “sotish” atamasini “o‘tkazish” atamasi bilan almashtirish hamda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalari yoki ularning analoglarini qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo‘natish uchun javobgarlik belgilash zarurati asoslangan;

o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot va sotsiologik so‘rovlar tahlili asosida JKning 273-moddasida nazarda tutilgan jinoyat uchun javobgarlik yoshini 14 yoshdan belgilash maqsadga muvofiqligi asoslangan;

JKga prekursorlar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi yangi modda kiritish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

JKning giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda yagona amaliyotni shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017 yil 28 apreldagi “Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 12-son qarorining 27-bandidagi “sudlangan holdagina” degan so‘zlar “sudlangan yoki sudlanmaganligidan qat’i nazar” degan so‘zlar bilan almashtirilishi lozimligi asoslangan;

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalari yoki ularning analoglarini qonunga xilof ravishda o‘tkazish (sotish) ushbu vosita yoki moddalarning g‘ayriqonuniy muomalaga chiqib ketgan-ketmaganligidan qat’i nazar, ularni bevosita topshirish, shu jumladan nazorat ostida olish vaqtida, sotib oluvchi tomonidan olingan-olinmaganligidan qat’i nazar, shartlashilgan joyga qo‘yib ketish vaqtdan tugallangan, deb hisoblanishi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishda foydalanilgan nazariy ma'lumotlar, qonunni qo‘llash amaliyoti, 150 ta sud hujjatlari (hukmlar va ajrimlar), 210 nafar tergovchi, advokat, surishtiruvchi, sudya hamda jinoyat va jinoyat-protsessual huquqi fanlari bo‘yicha ta’lim va ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi professor-o‘qituvchi va tadqiqotchilar o‘rtasida sotsiologik so‘rovnomalar o‘tkazilgani, statistika hisobotlari va sud amaliyoti materiallari rasmiy manbalardan olingani, xorijiy tajriba va milliy qonun hujjatlarining o‘zaro tahlil qilingani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, ular asosida shakllantirilgan ilmiy-nazariy xulosa, taklif va tavsiyalardan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni yoki ularning analoglarini o‘tkazish maqsadini ko‘zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o‘tkazishga qarshi kurash sohasidagi qonun hujjatlari va qonunni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda, tegishli qonun normalarini sharhlashda, qonun ijodkorligida, ilmiy-tadqiqotlar olib borishda, jinoyat huquqi nazariyasini boyitishda foydalanish mumkinligidan iboratdir.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni yoki ularning analoglarini o‘tkazish maqsadini ko‘zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o‘tkazish uchun javobgarlik belgilash va unga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralari takomillashtirishga qaratilgan bir qator qoida va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligida ifodalanadi. Tadqiqot natijalaridan JKni takomillashtirishda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tegishli ko‘rsatmalarini ishlab chiqishda, sud-tergov amaliyotida ushbu jinoyatni kvalifikatsiya qilish va jazo tayinlashda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda o‘tkazish va o‘tkazish maqsadida sodir etilgan boshqa harakatlarning jinoyat-huquqiy jihatlarini tadqiq qilish natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda tashish deganda, ularni har qanday transport turidan yoki tashish vositasi sifatida qo‘llanilgan qandaydir obyektidan foydalangan holda bir joydan boshqa joyga, shu jumladan, bir aholi punkti doirasida ko‘chirish, shuningdek, qayd etilgan vosita va moddalarni bunday faoliyat turi bilan shug‘ullanishga litsenziyasi bo‘lgan yuridik shaxslarning mas‘ul shaxslari tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibni buzgan holda tashish tushunilishi lozimligi to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining “Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2017 yil 28 apreldagi 12-son qarorining 9-bandini ishlab chiqishda inobatga olingan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024 yil 21 fevraldagi № 08/171-24-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni yoki ularning analoglarini qonunga xilof ravishda tashish harakatlarini kvalifikatsiya qilishda jinoyat tarkibini aniq farqlash va huquqiy qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga qaratilgan yagona sud amaliyotini shakllantirishga asos bo‘ladi;

huquqni qo‘llash amaliyotida har bir holat bo‘yicha giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallashdan ko‘zlangan maqsadi aniqlanishi lozim bo‘lib, ushbu vosita yoki moddalarni egallash ularni kelgusida o‘tkazish (sotish) uchun sodir etilganligi aniqlangan taqdirda, aybdorning harakatlari qayd etilgan jinoyatlarga tayyorgarlik ko‘rish yoki suiqasd sifatida qo‘shimcha ravishda JK 25, 273-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi

kerakligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining "Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2017 yil 28 apreldagi 12-son qarorining 20-bandining 3-xatboshini ishlab chiqishda inobatga olingan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024 yil 21 fevraldagi № 08/171-24-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalari yoki ularning analoglarini keyinchalik o'tkazish maqsadida qonunga xilof ravishda egallash harakatlariga aniq huquqiy baho berilishni ta'minlashga xizmat qiladi;

giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda o'tkazish deganda, ularni turlicha usulda haq evaziga yoki tekinga (sotish, hadya etish, almashtirish, qarzi evaziga yoki qarz sifatida va h.k.) boshqa shaxsga berish tushunilishi lozim. Bunda vositalar, moddalar, o'simliklar shaxs tomonidan bevosita yoki boshqa (masalan, ular saqlanadigan joy haqida xabar berish, shartlashilgan joyga qo'yib ketish) usulda amalga oshirilishi mumkinligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining "Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2017 yil 28 apreldagi 12-son qarorining 21-bandining 1-xatboshini shakllantirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024 yil 21 fevraldagi № 08/171-24-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalari yoki ularning analoglarini qonunga xilof ravishda o'tkazish belgilarini, shu jumladan, ularni aloqa qilmasdan yetkazish usullarini aniqlashtirishga xizmat qilib, huquqni qo'llash amaliyotini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi;

shaxsning g'araz maqsadda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar niqobi ostida qandaydir boshqa vosita yoki moddalarni o'tkazishda ifodalangan harakatlari firibgarlik sifatida, oluvchining harakatlari esa - giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda olishga suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozimligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining "Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2017 yil 28 apreldagi 12-son qarorining 23-bandini shakllantirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024 yil 21 fevraldagi № 08/171-24-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalari yoki ularning analoglari niqobi ostida boshqa vosita yoki moddalarni o'tkazish holatlarini kvalifikatsiya qilishning yagona qoidalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya natijalari 9 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, jumladan 3 ta xalqaro, 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, shundan dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta (shundan 3 tasi xorijda) maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, oltita paragrafni o‘z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 156 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, uslublari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda o‘tkazish yoki o‘tkazish maqsadida sodir etilgan boshqa harakatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan xalqaro va milliy jinoyat qonunchiligining rivojlanish tarixi”** deb nomlangan birinchi bobi ikkita paragrafdan iborat bo‘lib, unda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda o‘tkazishga qarshi kurashning xalqaro-huquqiy asoslari hamda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda o‘tkazish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyat qonunchiligining shakllanishi, rivojlanishi va hozirgi holati tahlil qilingan.

Ushbu bobda, muallif tomonidan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning muomalasini global tarzda tartibga solish va nazorat qilish uchun asos bo‘ladigan asosiy xalqaro huquqiy hujjatlar 1961 yildagi Giyohvandlik vositalari to‘g‘risidagi yagona konvensiya, 1971 yildagi Psixotrop moddalar to‘g‘risidagi konvensiya va 1988 yildagi BMTning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurash to‘g‘risidagi konvensiyalari ekanligi ta‘kidlanadi.

Izlanuvchining qayd qilishicha, ushbu konvensiyalar giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi huquqiy asos yaratadi va davlatlarning bu sohadagi majburiyatlarini belgilaydi. Mazkur xalqaro-huquqiy hujjatlar giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni nazorat qilishning xalqaro tizimini shakllantirishda, shuningdek, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashda davlatlarning sa‘y-harakatlarini muvofiqlashtirishning huquqiy asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular milliy qonunchilikni birxillashtirishga ko‘maklashib, mamlakatlarga global darajada giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarga qarshi samarali kurashish imkonini beradi.

Dissertantning yozishicha, O‘zbekiston Respublikasi har uchala konvensiyalarning ishtirokchisi bo‘lib, ulardagi qoidalarni o‘z milliy qonunchiligiga

tatbiq etib, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish sohasida xalqaro standartlarga sodiqligini namoyon etadi.

Binobarin, mamlakatimizda xalqaro standartlarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilib, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarga qarshi kurashishga qaratilgan samarali qonunchilik bazasini ishlab chiqish, shuningdek, ushbu masalalar bo'yicha xalqaro hamkorlikda faol ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Xususan, O'zbekistonda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalari yoki ularning analoglarini tayyorlash, olish, saqlash, tashish, jo'natish yoki o'tkazish uchun qat'iy jinoiy javobgarlik belgilangan. JKga giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasining barcha bosqichlari uchun jazo choralari nazarda tutuvchi moddalar kiritilgan.

Shu bilan birga, muallif, O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligida prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomala qilish uchun javobgarlik nazarda tutilmaganligi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishni huquqiy tartibga solishda jiddiy bo'shliq ekanligini qayd etmoqda. Ushbu kamchilik giyohvandlik moddalarni ishlab chiqarish va tarqatish bilan bog'liq faoliyatga qarshi kurashga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi.

Shuningdek, tadqiqot ishida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda o'tkazish uchun javobgarlikni tartibga soluvchi jinoyat huquqi normalarining shakllanish xususiyatlari quyidagi to'rtta tarixiy bosqichga ajratiladi: o'rta asrlar (VII - XVIII asrlar); mustamlakachilik davri (XIX-XX asrlar); sobiq Ittifoq davri (1917-1991 y.y.) va zamonaviy davr (1994 yildan hozirgi vaqtgacha).

VII-XVIII asrlarda hozirgi O'zbekiston hududida gashish va afyun kabi giyohvandlik vositalar asosan tibbiy va turli marosimlar o'tkazish maqsadlarida ishlatilgan. O'sha paytda giyohvandlik vositalar muomalasini aniq qonunchilik bilan tartibga solinmagan edi, lekin mast qiluvchi moddalarni, shu jumladan giyohvandlik vositalarni iste'mol qilishni taqiqlovchi shariat qonunlari amal qilgan. Ushbu taqiqlar giyohvandlikning shaxs va jamiyatga salbiy ta'sirini ta'kidlaydigan diniy va axloqiy ko'rsatmalarga asoslangan edi. Mazkur ko'rsatmalar giyohvandlik vositalarining tarqalishini cheklaydigan va jamiyatda axloqiy prinsiplarni qo'llab-quvvatlaydigan qadriyatlarni saqlashga qaratilgan edi.

XIX asrning oxirida Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni mustamlaka qilish davrida giyohvandlik vositalarning muomalasiga oid qonunchilik rivojlanishining yangi bosqichi boshlandi. Bu vaqtda O'zbekiston Rossiya imperiyasi tarkibiga kiradi va uning hududida giyohvandlik vositalarining muomalasini tartibga soluvchi qonunchilik normalari amal qila boshlaydi. XX asrning boshlarida Rossiyada afyun va boshqa giyohvandlik vositalarning muomalasiga oid paydo bo'lgan birinchi qonunlar O'rta Osiyoda ham ular bilan muomala qilishning huquqiy tartibga solinishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

1917 yil inqilobidan va SSR Ittifoqi tashkil qilinganidan so'ng O'zbekistonning

giyohvandlik vositalarga qarshi qonunchiligi faol rivojlana boshladi. O'sha davrdagi jinoyat qonunchiligida giyohvandlik vositalarni g'ayriqonuniy ravishda o'tkazish va saqlash uchun javobgarlik belgilangan edi. 1926 yilda qabul qilingan O'zSSRning JKda giyohvandlik vositalarni o'tkazish va tarqatish kabi narkojinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutildi. 1926 yilgi JK keyinchalik almashtirilgan bo'lsa-da, uning qabul qilinishi mustaqil O'zbekistonda rivojlanib borayotgan giyohvandlikka qarshi qonunchilikka asos soldi.

1974 yilda "Giyohvandlikka qarshi kurash to'g'risida"gi Butunittifoq qonuni qabul qilinib, u giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlar uchun jazoni kuchaytirdi va giyohvandlikning oldini olishga, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi ustidan davlat nazoratini kuchaytirishga qaratildi.

O'zbekiston 1991 yilda mustaqillikka erishgach, giyohvandlikka qarshi o'z qonunchiligini ishlab chiqishni boshladi. Ushbu bosqichning asosi xalqaro standartlarga mos keladigan va mamlakatning milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda yangi normativ hujjatlarni qabul qilish edi. 1994 yilda JK qabul qilinib, unda giyohvandlik vositalarini qonunga xilof ravishda o'tkazish va tayyorlash uchun qat'iy javobgarlik nazarda tutilgan moddalar kiritildi.

O'zbekistonning zamonaviy qonunchiligida psixofaol moddalar sonining ko'payishi va giyohvandlik vositalarning noqonuniy muomalasida texnologiyalardan foydalanish kabi yangi muammolarga qarshi kurashish choralari ham ko'zda tutilgan. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi va giyohvandlik vositalarning g'ayriqonuniy muomalasiga qarshi kurash bo'yicha global tashabbuslarda ishtirok etishi ham muhim ahamiyatga ega.

Davlat giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashning huquqiy va institutsional mexanizmlarini mustahkamlash maqsadida BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) va boshqa xalqaro tuzilmalar bilan faol hamkorlik qiladi.

Shunday qilib, O'zbekistonning giyohvandlikka qarshi qonunchiligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitidagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Zamonaviy qonunchilik huquq-tartibot va xavfsizlikni ta'minlashga, shuningdek, giyohvandlikka qarshi kurashda zamonaviy xavf-xatarlarga moslashishga qaratilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g'ayriqonuniy ravishda o'tkazish yoki o'tkazish maqsadida sodir etilgan boshqa harakatlarning yuridik tavsifi**" deb nomlanib, unda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o'tkazishning obyektiv va subyektiv belgilari tahlil qilingan.

Muallif giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o'tkazishning bevosita obyektini aniqlashga oid turli yondashuvlarni o'rganish asosida, ushbu jinoyatning bevosita obyektini jinoyat qonunchiligida ko'rsatilmaganligi turli

talqinlarga olib kelayotgani ta'kidlandi.

Tajovuz obyektining har bir turini nazariy jihatlarini kompleks tarzda tahlil qilinib, JK Maxsus qismining tizimi tajovuz obyektlarning muhimligi va umumiyligi prinsiplariga asoslanganligini va uning jinoyat qonunida ko'rsatilishi kodeksda foydalaniladigan yuridik texnikasi bilan buyurilganligini hisobga olgan holda, shuningdek, Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Moldova, Tojikiston, Ukraina, Armaniston, Turkiya davlatlarining tajribasini inobatga olgan holda, muallif tomonidan JK Maxsus qism Oltinchi bo'lim XIX bobini (Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar) "Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish bilan bog'liq aholining sog'ligiga qarshi jinoyatlar" deb nomlash maqsadga muvofiqligi asoslantirildi.

Dissertatsiya tadqiqotida ko'rilayotgan jinoyat predmetining belgilari har tomonlama o'rganilib, ilmiy adabiyotlarda uni aniqlash bo'yicha yagona yondashuv mavjud emasligi ta'kidlanadi. Masalan, S.P. Didovskaya<sup>1</sup> ko'rilayotgan jinoyat predmetini ikki mezon - mazmun va rasmiy-huquqiy mezonlar asosida ajratadi: birinchisi moddaning eyforiya holatini vujudga keltirishi hamda ruhiy va jismoniy qaramlik shakllantirish xususiyatini ifodalasa, ikkinchisi giyohvandlik vositalarning ro'yxatini belgilaydigan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda mustahkamlanadi. E.A. Babayan, A.V. Gayevskiy va Ye.V. Bardin<sup>2</sup>larning fikricha, moddani giyohvandlik vositasi sifatida e'tirof etishda uchta o'zaro bog'liq mezon - tibbiy, yuridik va ijtimoiy mezonlar inobatga olinadi. A.D. Nevirko<sup>3</sup> esa mazkur konsepsiyani rivojlantirib, maqsadli, ijtimoiy va yuridik mezonlarni qamrab oladigan o'z tasnifini taklif etadi. Shu bilan birga, A.S. Yakubov va R. Kabulov<sup>4</sup> ko'rilayotgan predmetning belgilarini jismoniy, tibbiy, huquqiy va ijtimoiy jihatlardan tizimlashtirish zarurligini ta'kidlaydilar.

Yuqoridagi yondashuvlarni tahlil qilish asosida dissertant giyohvandlik vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlarni jinoyat predmeti sifatida jismoniy, tibbiy, huquqiy va ijtimoiy mezonlar majmui asosida aniqlash maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi xulosaga keladi. Ushbu mezonlarning faqat birgalikda qo'llanilishi jinoyat predmetini har tomonlama va ob'yektiv aniqlash, huquqni qo'llashdagi bo'shliqlar va turlicha talqinlarni bartaraf etish, shuningdek, qilmishning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasidan kelib chiqib javobgarlikni to'g'ri differentsiatsiya qilish imkonini beradi.

Ishda, ko'rib chiqilayotgan jinoyat obyektlarining xususiyati sifatida ularning

---

<sup>1</sup> С.П. Дидовская. Наркомания (Уголовно-правовые и медицинские проблемы) / С.П. Дидовская, Е.В. Фесенко, С.П. Гарницкий. – Киев, 1989., С. 69.

<sup>2</sup> Э.А. Бабаян. Правовые аспекты оборота наркотических, психотропных, сильнодействующих ядовитых веществ и прекурсоров/ Э. А. Бабаян, А. В. Гаевский, Е. В. Бардин. –М. : МЦФЭР, 2000. –440 с.

<sup>3</sup> А.Д. Невирко. Понятие и классификация наркотических средств в легальном обороте. //Вестник Сибирского юридического института ФСКН России. 2016. № 1 (22)., – Б. 151-152.

<sup>4</sup> А.С. Якубов, Р. Кабулов. Предмет преступлений, составляющих незаконный оборот наркотических средств или психотропных веществ / Гиёхвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланишига қарши курашнинг назарий ва амалий жиҳатлари: Илмий мақолалар тўплами. –Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2008. –Б. 8.

analoglari mavjudligi ta'kidlandi.

Tadqiqotchi tomonidan, ko'rilayotgan moddada faqatgina giyohvandlik vositalarning analoglari ko'rsatilgan bo'lib, psixotrop moddalarning analoglari bilan noqonuniy muomala qilish esa javobgarlik doirasidan chetda qolib ketganligi, O'zbekiston Respublikasi «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi qonunining 5-moddasiga muvofiq, nafaqat giyohvandlik vositalari analoglari, balki psixotrop moddalar analoglarining ham muomalasi taqiqlanganligi e'tirof etilgan.

Bu borada chet davlatlarning jinoyat qonunchiligini o'rganish natijasida psixotrop moddalarning analoglari uchun javobgarlik Rossiya, Gruziya, Ukraina, Qozog'iston, Belarus, Qirg'iziston, Moldova, Bolgariya JKda belgilanganligi aniqlanib, mavjud huquqiy bo'shliqni to'ldirish hamda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalari va ularning analoglarini g'ayriqonuniy muomalasiga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy choralarning samaradorligini oshirish maqsadida JKning 273-moddasida nazarda tutilgan jinoyat predmetlari qatoriga psixotrop moddalarning analoglarini belgilash maqsadga muvofiqligi asoslantirildi.

Dissertatsiyada mazkur jinoyatning obyektiv tomonini tashkil etuvchi barcha qilmishlar alohida tahlil qilinib, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni ishlab chiqarish, qayta ishlash va tayyorlash tushunchalarning o'zaro munosabati, shuningdek, jinoyat predmetlarini ishlab chiqarish bilan ularni takroran tayyorlashning farqi aniqlandi.

Shu bilan birga, dissertant tomonidan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qayta ishlash uchun javobgarlik faqatgina JK 273-moddasining 4-qismida, ya'ni laboratoriyalarda yoxud o'zganing mulki hisoblangan vositalar va asbob-uskunalardan yoki prekursorlardan foydalangan holda sodir etilsagina nazarda tutilganligi va shu sabab giyohvandlik vositalarni, psixotrop moddalarni yoki ularning analoglarini boshqa holatlarda qayta ishlash javobgarlik doirasidan tashqarida qolib ketganligi ta'kidlanib, jinoyat predmetlarini qonunga xilof ravishda qayta ishlash uchun javobgarlik JKning 273-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning asosiy tarkibida belgilanishi lozimligi asoslantirildi.

Jumladan, muallif tomonidan yuridik adabiyotlarda "tayyorlash" va "qayta ishlash" tushunchalarini farqlashga doir turli yondashuvlar mavjudligi ta'kidlandi. Bir qator olimlar fikricha, "qayta ishlash" "tayyorlash" tushunchasi bilan qamrab olinadi, zero har ikki holatda ham modda iste'mol yoki o'tkazishga yaroqli yakuniy mahsulot olish maqsadida faol tarzda o'zgartiriladi (bunday yondashuv, jumladan, M.X. Rustamboev<sup>1</sup>, S.P. Novosel'tsev, N.V. Xamskiy va D.K. Chirkov<sup>2</sup> asarlarida bayon etilgan).

---

<sup>1</sup> M.X. Rustamboev O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh [Qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashr. 2016 yil 1 noyabrgacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan] Maxsus qism / M. Rustamboev. - Toshkent: "Adolat", 2016. -B. 815.

<sup>2</sup> С.П. Новосельцев, Н.В. Хамский, Д.К. Чирков Квалификация преступлений, связанных с незаконным оборотом наркотических средств, психотропных, сильнодействующих и ядовитых веществ. Научно-практическое пособие. Красноярск. 2003.

Biroq ayrim olimlar (masalan, L.E. Chistova<sup>1</sup>)ning ta'kidlashicha, "qayta ishlash", "tayyorlash"dan farqli o'laroq, mavjud giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni modifikatsiya qilishga qaratilgan, shu sababli uni alohida tarzda ta'riflash va jinoyiy javobgarlik belgilash zarur. Dissertant mavjud nuqtayi nazarlarni tahlil qilgan holda ikkinchi yondashuvga amal qiladi va huquqni qo'llashdagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish maqsadida mazkur tushunchalarni qonunchilikda farqlash va aniqlash zarurligini ta'kidlaydi.

Jinoyat predmetlarini tayyorlash va qayta ishlashning o'zaro farqini aniqlash va shu orqali ushbu tushunchalarni qo'llashning yagona amaliyotini ta'minlash maqsadida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni yoki ularning analoglarining quyidagi mualliflik tushunchasi ishlab chiqildi:

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni yoki ularning analoglarini qayta ishlash deganda, O'zbekiston Respublikasida nazoratga olingan muomalasi taqiqlangan yoki cheklangan giyohvandlik vositalarni, psixotrop moddalarni yoki ularning analoglarini tozalashga, to'yinganlik darajasini yoki faolligini oshirishga, shuningdek inson organizmiga bo'lgan ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan har qanday usullar, texnologiyalar yoki vositalar yordamida ularning shaklini, tarkibini yoki kimyoviy xususiyatlarini o'zgartirish jarayoni tushuniladi.

Tadqiq qilinayotgan jinoyatning sub'yekt belgilarini ko'rib chiqayotganda, muallif tomonidan yuridik adabiyotlarda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni va ularning analoglarini o'tkazish yoki o'tkazish maqsadida qonunga xilof ravishda boshqa harakatlar uchun jinoiy javobgarlik yoshini belgilash bo'yicha turli fikrlar mavjudligi qayd etildi.

Ayrim xorijiy davlatlarning (Belarus (JK 27-m.), Tojikiston (JK 23-m.), Turkmaniston (JK 19-m.), Qirg'iziston (JK 28-m.)) jinoyat qonunchiligini tahlil qilish, olimlarning fikrlarini, shuningdek, 14–15 yoshdagi 200 nafar o'rta maktab o'quvchilari orasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 74 foizi narkomaniya nima ekanligini biladi, 90,6 foizi esa giyohvandlik vositalarining inson organizmiga zararli ta'siri haqida xabardor ekanligini hisobga olgan holda, muallif bugungi jamiyatning rivojlanishi va aholi xabardorligining zamonaviy sharoitlarida giyohvandlikning ijtimoiy xavfi va uning inson organizmiga zararli ta'sirini inson 16 yoshga to'lishidan ancha avvalroq anglash mumkinligi xulosasiga keladi va giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek, ularni qonunga xilof ravishda o'tkazish uchun javobgarlikka tortishning minimal yoshini 14 yoshdan belgilash maqsadga muvofiqligi to'g'risida taklif qiladi.

**“Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g'ayriqonuniy ravishda o'tkazish yoki o'tkazish maqsadida sodir etilgan boshqa harakatlarni kvalifikatsiya qilish va jinoyat qonunchiligini takomillashtirish”** deb nomlangan dissertatsiyaning uchinchi bobida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g'ayriqonuniy ravishda o'tkazish yoki o'tkazish maqsadida sodir etilgan boshqa

---

